

Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Ishchi o‘quv rejalar” interaktiv xizmatining reglamenti

1. Xizmat ta’rifi

1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Ishchi o‘quv rejalar”.
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko‘rsatilayotgan “Ishchi o‘quv rejalar” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institutdagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalarini bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi.

1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

1.4. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Talabalar, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar, institut rahbariyati va OTM lari.

1.5. Bajarilish muddati

“Ishchi o‘quv rejalar”i yangi o‘quv yilining boshlanishidan 1 oy ichida interaktiv xizmat bazasiga joylashtiriladi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. O‘quv rejalar gipermurojaati tanlanadi.
2. Tegishli ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislik tanlanadi.
3. Yuqoridagi so‘rovlar asosida ishchi o‘quv rejalarini bilan tanishish imkoniyati bo‘ladi.

2.2. Batafsil ma’lumot olish

Institut o‘quv-uslubiy bo‘limi orqali:
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti (www.tkti.uz) ning interaktiv xizmatlar bo‘limiga joylashtiriladi.

2.3. So‘rovnoma bo‘yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha.

2.4. Xizmat ko‘rsatish manzili haqida ma’lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko‘chasi 32 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Zarur bo‘lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo‘shimcha hujjat talab etilmaydi.

4.2. Xizmat to‘lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmat ko‘rsatish bosqichlari

Mas’ul xodimlar tomonidan ishchi o‘quv rejalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllantiriladi. Institut yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha ishchi o‘quv rejalar rektor tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, interaktiv xizmat ma’lumotlar bazasiga 1 ish kun mobaynida kiritiladi. Interaktiv davlat xizmati ma’lumotlar bazasini texnik ta’minoti ATM zimmasiga yuklatiladi.

4.4. Davlat xizmatini ko‘rsatishning ichki idoraviy jarayoni

Bu interaktiv xizmat so‘rov-javob usulila tashkil etiladi.

4.5. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko‘rsatish dasturi o‘rnatilgan serverda profilaktik ishlar o‘tkazilayotgan bo‘lishi mumkin